

Date: 21st March-2026

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING ZAMONAVIY TIZIMI.

Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna

NamDU dotsenti

Boboqulova Bibihayot O'tkirjon qizi

Namangan davlat universiteti

Yuridik fakulteti talabasi

Annotatsiya: Raqamli texnologiyalar davrida inson huquqlarini himoya qilish zamonaviy yo'llar orqali amalga oshirilmoqda. Raqamli texnologiyalar sharoitida inson huquqlarini himoya qilishning yangi mexanizmlari, onlayn murojaatlar tizimi va ochiqlik siyosatining ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqotlar natijasida O'zbekistonning inson huquqlarini ta'minlash borasidagi siyosati xalqaro standartlarga mos ravishda izchil rivojlanmoqda.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, huquqiy davlat, raqamli islohotlar, adolat, onlayn murojaatlar, Ombudsman.

СОВРЕМЕННАЯ СИСТЕМА ЗАЩИТЫ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.

Чубоева Озодахон Кувонбековна

Доц НамГУ

Бобокулова Бибахаят

Наманганский государственный университет Студентка 1 курса юридического факультета

Аннотация: В условиях развития цифровых технологий защита прав человека осуществляется через современные и эффективные механизмы. Использование цифровых технологий создаёт новые возможности для обеспечения прав человека, в том числе через систему онлайн-обращений и практику открытости. В статье показано значение данных реформ и политико-правовой сферы. Результаты исследования свидетельствуют о том, что политика Узбекистана в области защиты прав человека постепенно развивается в соответствии с международными стандартами.

Ключевые слова: права человека, правовое государство, цифровые технологии, справедливость, онлайн-обращение, Омбудсман

THE MODERN SYSTEM OF HUMAN RIGHTS PROTECTION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.

Chuboyeva Ozodakhon Kuvonbekovna



Date: 21st March-2026

Associate Professor of NamSU

Bibikhayat Bobokulova Namangan State University First-year law student

Abstract: In the digital era, the protection of human rights is being implemented through various modern and effective mechanisms. The use of digital technologies has created new opportunities for ensuring human rights, including the introduction of online appeal systems and the promotion of transparency. The article highlights the political and legal significance of these reforms. The results of the research show that Uzbekistan's policy in the field of human rights protection is consistently developing in accordance with international standards.

Key words: human rights, legal state, digital reforms, justice, online appeals, Ombudsman

O'zbekiston Respublikasida inson huquqlarini himoya qilish masalasi zamonaviy davrda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir paytda inson huquqlarining taminlanishi va nazorati uchun yangi yondashuvlarga ehtiyoj kuchaymoqda. Ushbu maqolaning maqsadi-zamonaviy sharoitda inson huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini tahlil qilish va mavjud imkoniyatlarni yoritib berishdir.

O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilishning asosiy milliy institutlari hisoblangan Inson huquqlari bo'yicha vakil (Ombudsman) va Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz so'nggi yillarda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali o'z faoliyatining samaradorligini tubdan oshirmoqda. Raqamlashtirish jarayonlari nafaqat murojaatlarni ko'rib chiqish tezligini oshirdi, balki aholining ushbu tashkilotlarga murojaat qilish imkoniyatlarini yanada qulay va ochiq shaklga keltirdi.

Ombudsman institutining faoliyatida 2023 yilda murojaatlar bilan ishlash tizimi to'liq raqamlashtirilgani muhim yangilik bo'ldi. Mazkur yilda vakilga jami 18 622 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, ular orasida oddiy fuqarolar, mahkumlar, ularning yaqinlari va chet el fuqarolari ham mavjud.[1] Raqamli tizim natijasida murojaatlarning ijro mexanizmi ancha tezlashdi va ularning nazorati shaffofligini ta'minlash imkoniyati yaratildi. Ombudsman tomonidan ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida 2,1 milliard so'mdan ortiq zararlar undirilgan, 38 nafar fuqaro ishga tiklangan, 11 nafar murojaatchiga esa 1,5 milliard so'mdan ortiq kompensatsiya to'lab berilgan. Shuningdek, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini monitoring qilish doirasida Ombudsman 80 dan ortiq sud jarayonlarida kuzatuvchi sifatida ishtirok etgan va inson huquqlari buzilishiga oid bir qator holatlarning bartaraf etilishiga erishgan.[2]

Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz ham raqamli texnologiyalardan keng foydalanib, jamoatchilik bilan aloqalarni mustahkamlashga erishmoqda. 2024 yilning 10 oyi davomida markazga 1 256 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, ularning sezilarli qismi onlayn qabulxonalar orqali yuborilgan.[3] Markazning asosiy vazifalaridan biri – xalqaro inson huquqlari standartlarini milliy amaliyotga tatbiq etish va bu borada monitoring olib borishdir. Shu maqsadda, Milliy markaz yil davomida bir qator qonun loyihalariga



Date: 21st March-2026

xulosalar taqdim etgan, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tavsiyalarining bajarilishi yuzasidan hisobotlar tayyorlagan hamda inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiya ijrosini muvofiqlashtirishda Ombudsman va Milliy markaz tomonidan inson huquqlarini himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan raqamli islohotlar fuqarolar uchun ochiq, qulay va tezkor huquqiy yordam tizimini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu institutlar faoliyatining amalga oshirilishiga xizmat qiluvchi yangi imkoniyatlarni yaratdi.

Hozirgi kunda mamlakatda Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlisning vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz, Bolalar ombudsmani, Gender tengligini ta'minlash qo'mitasi kabi mustaqil institutlar samarali tizimni shakllantirmoqda. Mazkur tuzilmalar fuqarolarning huquqlari buzilishi holatlarini o'rganish, monitoring o'tkazish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, eng muhimi, aholining murojaatlari bilan ishlash bo'yicha zamonaviy mexanizmlarni joriy etmoqda. Xususan, Ombudsman faoliyatida elektron murojaatlar tizimi yaratilib, 2023 yilda 18 mingdan ortiq murojaat raqamli tarzda qabul qilinganligi tizimning qulayligi va shaffofligini ko'rsatadi.

Inson huquqlarini ta'minlashda raqamlashtirish jarayonlari alohida o'rin tutmoqda. Davlat xizmatlarining elektron shaklga o'tkazilishi, "E-ombudsman", "E-murojaat", "Open Data" platformalari kabi xizmatlar fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini tez, qulay va shaffof tarzda himoya qilishiga keng imkon yaratdi. Milliy markaz tomonidan o'tkazilayotgan monitoringlar va ijtimoiy tadqiqotlar ham raqamli texnologiyalar asosida yo'lga qo'yilib, tizim samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayni paytda qamoqxonalarda, ijtimoiy himoya muassasalarida va boshqa yopiq joylarda inson huquqlariga rioya qilinishini baholash bo'yicha "National Preventive Mechanism" (NPM) doirasida muntazam monitoringlar o'tkazilmoqda.

Yuqoridagi islohotlar natijasida O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rni ham sezilarli o'zgarib bormoqda. Inson huquqlariga rioya etish bo'yicha BMTning turli konvensiyalari ratifikatsiya qilindi, xalqaro ekspertlar bilan hamkorlik kuchaydi. Xususan, gender tengligini ta'minlash, majburiy mehnatga barham berish, diniy erkinlik va so'z erkinligini rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlar inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyatni shakllantirishga, davlat boshqaruvida oshkoralik, hisobdorlik hamda qonun ustuvorligi tamoyillarining mustahkamlanishiga sabab bo'lmoqda.

Shunga qaramay, tizimda ayrim muammolar ham mavjud. Qonun normalarini amaliyotga tatbiq etishda uchraydigan qiyinchiliklar, aholining huquqiy savodxonligining pastligi, ayrim mahalliy organlar faoliyatida shaffoflik yetishmasligi — asosiy muammolardan sanaladi. Bu borada huquqiy targ'ibotni kuchaytirish, sud va prokuratura tizimini zamonaviylashtirish, Ombudsman institutining vakolatlarini kengaytirish kabi takliflar ilgari surilmoqda.

O'zbekiston inson huquqlarini ta'minlashda xalqaro standartlarga tayanadi va ularni milliy amaliyotga joriy etib bormoqda. BMTning asosiy konvensiyalari, YXHT tavsiyalari



Date: 21st March-2026

va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik milliy tizimni takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Xususan, xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikda qonunchilik islohoti, majburiy mehnatga barham berish, gender tengligini ta'minlash, bolalar va nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilish bo'yicha amaliy choralar ko'rilmoqda.

Davlat organlarining ochiqligi, jamoatchilik nazoratining kengayishi va fuqarolarning murojaat qilish huquqi kafolatlarining kuchaytirilishi jamiyatda inson huquqlarini yanada rivojlanishiga katta omil bo'lib xizmat qilmoqda. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar milliy qonunchilikka va huquqni qo'llash amaliyotiga tizimli hamda bosqichma-bosqich implementatsiya qilinmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan 80 dan ortiq inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro hujjatlar normalari milliy qonunchilikda o'z aksini topmoqda.[4]

Sud-huquq sohasini yanada demokratlashtirish, Konstitutsiya ustuvorligi, qonun oldida tenglik, insonparvarlik, adolatlilik, sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash, sud jarayonida tortishuv tamoyillarini tatbiq etish, aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirish, «Xabeas korpus» institutini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi inson huquqlar va erkinliklarini uchun zamonaviy tarzda amalga oshirilayotgan tizimning yaqqol misolidir.

Inson huquqlarini himoya qilish uchun O'zbekistonda turli konferensiyalar bo'lib o'tmoqda. Bunga yaqqol misol qilib 2017 yil 21-noyabr kuni Toshkent shahrida "Inson huquqlari sohasida taraqqiyot mezonlarini o'lchash bo'yicha qiyosiy ko'rsatkichlar: xalqaro amaliyotlar va O'zbekiston tajribasi" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi.[5]

Ushbu xalqaro konferensiyaning maqsadi butun dunyoda inson huquqlari sohasida taraqqiyot mezonlarini o'lchash bo'yicha xalqaro amaliyotni o'rganish, milliy ko'rsatkichlarni belgilash, inson huquq va erkinliklarining alohida toifalari, jumladan, fuqarolik, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy huquqlar hamda globallashtirish va axborot texnologiyalari sharoitida inson huquq va erkinliklariga rioya etish va ularni himoya qilishni ta'minlashga doir ko'rsatkichlarni ishlab chiqishdan iborat edi. O'zbekiston ham shu ustuvor yo'nalish orqali inson huquqlari sohasidaga ishlarni tizimli yo'lga qo'yish uchun o'z dastur yo'nalishlarini belgiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlashning zamonaviy tizimi izchil rivojlanib bormoqda. Konstitutsiyaviy kafolatlar, xalqaro huquqiy hujjatlar va milliy institutlar faoliyati orqali fuqarolarning huquq va erkinliklari himoya qilinmoqda. Kelgusida inson huquqlarini yanada mustahkamlash, huquqiy madaniyatni oshirish va xalqaro standartlarga mos ravishda islohotlarni davom ettirish tizimning barqaror rivojiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBAALAR

1. O'zbekiston Respublikasi "Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) tog'risida"gi qonun.
2. Ombudsman. <https://ombudsman.uz>
3. Milliy <https://markaz.nrhc.uz>



Date: 21st March-2026

4. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi rasmiy sayti. <http://insonhuquqlari.uz>

5. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali. <https://gov.uz>

